



KOREYS TILIDA NUTQIY ETIKET (HURMAT KATEGORIYALARI MISOLIDA)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Azimova Nigora Axmad qizi

FING 2-bosqich talabasi Rayimberdiyeva Jasmina

Annotatsiya

Mazkur tezisdá koreys tilida nutqiy etiketning lingvopragmatik xususiyatlari, hurmat kategoriyalari va muloqot strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda 주체높임법, 객체높임법 va 상대높임법 kabi hurmat shakllarining nutq jarayonidagi o'rnini yoritiladi. Shuningdek, koreys jamiyatida xushmuomalalik, hamkorlik, navbat almashish prinsiplari hamda standart nutq etiketi qoidalarining amaliy ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, koreys tili, hurmat kategoriyasi, 경어법, 존댓말, xushmuomalalik, muloqot strategiyasi.

Аннотация

В данном тезисе рассматриваются лингвопрагматические особенности речевого этикета в корейском языке, а также категории уважительности и коммуникативные стратегии. Особое внимание уделяется таким формам уважения, как 주체높임법, 객체높임법 и 상대높임법, их роли в процессе общения. Также анализируется практическое значение принципов вежливости, сотрудничества, очередности реплик и стандартных норм речевого этикета в корейском обществе.

Abstract

This thesis examines the linguopragmatic features of speech etiquette in the Korean



language, focusing on honorific categories and communication strategies. The study analyzes the role of 주체높임법, 객체높임법, and 상대높임법 in the process of communication. It also discusses the practical significance of politeness principles, cooperation, turn-taking, and standard speech etiquette norms in Korean society.

Nutqiy etiket (nutq madaniyati, so‘zlashuv odobi) jamiyat tomonidan qabul qilingan, muloqat ishtirokchilarining Yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi va o‘zaro munosabatlaridan kelib chiqib belgilanadigan tizimli lisoniy qoidalar va xulq atvor majmuasidir. Ilmiy nuqtayi nazardan, nutqiy etiket shunchaki “shirinso‘zlik” emas, balki tilshunoslikning **pragmatika**, **sotsiolingvistika** va **psixolingvistika** sohalari kesishmasida o‘rganiladigan murakkab ijtimoiy-lisoniy hodisadir. Nutq etiketi insonlar orasidagi kommunikativ vaziyatda an‘analarga asoslangan turli ijtimoiy va madaniy qoidalar tizimidir. Har bir tilning nutqiy etiketida o‘ziga xos xususiyatlar, ijtimoiy rollar va munosabatlar mavjud.

Koreys olimlari nutqiy etiketni tahlil qilishda asosan uchta ichki tizimni ajratib ko‘rsatishadi:

1. 주체높임법- Egaga nisbatan etiket hisoblanib agar gap kim haqida borayotgan bo‘lsa masalan, bobo. rahbar, shifokor, o‘sha shaxsga nisbatan hurmat ko‘rsatish qoidasi hisoblanadi. Bunda fe’lga -si- (시) affiksi qo‘shiladi yoki maxsus leksik birliklar ishlatiladi.

2. 객체높임법-To‘ldiruvchi ya’ni qabul qiluvchiga nisbatan etiket hisoblanib harakat kimga qaratilgan bo‘lsa o‘sha shaxsni ulug‘lash etiketidir. Bunda maxsus o‘zgaruvchan fe’llar qo‘llanadi. Misol tariqasida aytadign bo‘lsak(주다)fe’li o‘rniga 드리다so‘zib ishlatiladi.

3. 상대높임법-Tinglovchiga nisbatan etiket hisoblanib, koreys nutqiy etiketining eng murakkab va eng ko‘p tadqiq etilgan qismi sanaladi. Bu bevosita siz tinglovchiga gapirayotganingizda gap oxirini qanday yakunlashingiz bilan bog‘liq. Olimlar buni격식체 va비격식체 guruhlarga bo‘lib, muloqot ishtirokchilarining



sotsial masofasini o'lchashgan. Shuningdek Koreys madaniyatida "Xushmuomalalik prinsiplari" va "Muloqot strategiyalari"ga bag'ishlangan muhim ilmiy-nazariy qoidalar va amaliy qoidalar bor bo'lib ularning ilmiy darajasi quydagilardan iborat.

Muloqot jarayonida suhbatdoshga nisbatan hurmat va e'tibor tuyg'ularini til vositalari orqali ifodalashning ijtimoiy urf-odatga aylangan shakliga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun to'g'ri muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish muhim sanaladi. Quyda ularning turlariga batafsil to'xtalamiz. 공손성의 원리-Suhbatdoshga nisbatan hurmat va e'tibor bilan, odob doirasida muloqot qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki noto'g'ri muloqot suhbatdoshlar o'rtasida tushunmovchilik keltirib chiqarishi va munosabatlarga putur yetkazishi mumkin. O'zaro munosabatlar va muloqot vaziyati hisobga olinmasa, hatto to'g'ri gapirilgan gap ham tushunmovchilikka sabab bo'lishi hech gap emas. Shu bois, o'zaro suhbat jarayonida munosabatlar va vaziyatni kuzatgan holda, suhbatdoshni hurmat qilib, xushmuomalalik bilan gapirish lozim. Quyda mana shunda uslublardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

-요령의 격률uslubu esa suhbatdoshga noqulaylik tug'diradigan ifodalarni minimallashtirish va unga foyda keltiradigan ifodalarni maksimallashtirishdir.

-관용의 격률esa gapiruvchi shaxs o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, o'ziga foyda keltiradigan ifodalarni minimallashtirishi va o'ziga yuk bo'ladigan (majburiyat yuklaydigan) ifodalarni maksimallashtirishi usulidir (aybni o'ziga olish).

-찬동의 격률prinsipida Suhbatdoshni kamsituvchi ifodalarni minimallashtirish va uni chiroyli so'zlar bilan maqtashni maksimallashtirish foydalaniladi..



-겸양의 격률usulida apiruvchi o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, o‘zini maqtashni minimallashtirishi va o‘zini past kamtarin tutishni maksimallashtirishi usulidan hisoblanadi.

-동의를 격률 da suhbatdoshning fikriga qarshi chiquvchi ifodalarni minimallashtirish va uning fikri bilan mos keladigan ifodalarni maksimallashtirish usulidir.

-순서 교대의 원리- navbat almashish prinsipi ham bor bo‘lib, muloqot ishtirokchilari rollarni gapirish navbatini o‘z o‘rnida almashtirib, o‘zaro fikr almashishlari lozim, bu esa axborotning erkin va muvaffaqiyatli aylanishini ta‘minlaydi.

Ushbu muloqot jarayonida e‘tibor berilishi kerak bo‘lgan bir nechta jihatlar mavjud bo‘lib bular gapni haddan tashqari uzoq cho‘zmaslik,suhbatni bir o‘zi monopoliya qilib olmaslik.vaziyatni kuzatgan holda muloqotga kirishish sanaladi.

-협력의 원리-hamkorlik prinsipida esa muloqot maqsadiga erishish uchun suhbat ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlik qilish prinsipini anglatadi. 양의 격da-kerakli hajmdagi axborotni taqdim etish muhim hisoblanib, 질의 격da esa ishonchli axborotni taqdim etish asosiy sanaladi.

태도의 격da mavhum yoki chalkash ifodalardan qochib, aniq va ravshan ifodalardan foydalanish.kerak bo‘lsa 관련성의 격률da esa muloqot kontekstiga mos keladigan ifodalarni qo‘llash zarurdir.

Suhbatdoshning ko‘nglini og‘ritmaslik usullaridan biridir. Asosan, vaziyatga mos ravishda to‘g‘ri muloqot qilish maqsadga muvofiqdir. Aks holda, vaziyat yomonlashishi tabiiy. Masalan, biror kishi bilan beixtiyor urilib ketganda, uzr so‘rash o‘rniga unga qarab: *"Ko‘zingizni kattaroq ochib yursangiz bo‘lmaydimi? Yoshing nechada o‘zi? Kalaka qilyapsanmi? Jonga tegding-ku!"* deb baqirilsa, u insonning kayfiyati va ruhiyati qanday bo‘ladi? Tabiiyki, u inson o‘zini haqoratlangan his qilib, ich-ichidan siqilishidan ko‘ra, sizga xuddi shunday haqorat



bilan javob qaytarishni xohlaydi. Shuning uchun, vaziyatga qarab suhbatdoshni hurmat qilgan holda, shirinsoʻzlik bilan gapiraylik.

Milliy koreys tili instituti 2012-yil 13-martda “Standart nutq etiketi” qoidalarini eʼlon qildi. Ushbu standart nutq etiketi oiladagi unvonlar, jamiyatdagi unvonlar, hurmat formalari 경어법, kundalik hayotdagi salomlashish soʻzlari, maxsus kunlardagi tabriklar hamda rasmiy xat-hujjatlar qoliplarini oʻz ichiga oladi. Yangi tahrirdagi qoidalarning eng muhim qismlari quyidagilardan iborat etib belgilandi.

- *Bobo-buvilar, nevaralar va amakivachcha nisbatan murojaat shakllari qoʻshildi.* Otaning otasiga nisbatan “*할아버지*” (bobo), otaning onasiga esa *외할아버지* soʻzlari ishlatiladi. Shuningdek, onaning otasi “*외할아버지*” (ona tomondan bobo), onaning onasi esa “*외할머니*” (ona tomondan buvi) deb ataladi. Biroq, ona tomondagi bobo-buvilarni ota tomondagilardan ajratib koʻrsatish zarurati boʻlganholatlardan tashqari, kundalik muloqotda “*외*” (ona tomondan) qoʻshimchasini qoʻshmasdan, shunchaki “*할아버지*” yoki “*할머니*” deb murojaat qilish odatiy hol boʻlgani uchun, ularni ham shunday atashga ruxsat beriladi. Oʻgʻil yoki qizning farzandi boʻlgan nevaralarga “*질수야*” kabi ismning oʻzini aytib murojaat qilinadi. Ammo, nevara turmush qurib, farzandli boʻlsa va u farzand (evara) ham shu yerda hozir boʻlsa, nevarani oʻz farzandi oldida hurmat qilish maqsadida uning ismini aytib chaqirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Hujjatlar boʻlimi eng oxiriga alohida joylashtirilib, unga elektron pochta, toʻy taklifnomalari, toʻy toʻgʻrisidagi tashakkurnoma va taʼziya bildirishnomalari andozalari yangitdan kiritildi. Elektron pochtaning imzo qismida *taʼzim bilan* (올림) yoki *hurmat ila* (드림) kabi iboralar bilan odob saqlanadi. Toʻy taklifnomasining konvertiga “*Falonchining ota-onasi taʼzim ila/배상*” deb yozilgan boʻlsa-yu, konvert ichida doʻstining oʻz toʻyi haqidagi xabari boʻlsa, bu taklifnomani yuboruvchi shaxs (ota-ona) bilan toʻy egasi (doʻsti) oʻrtasida chalkashlik keltirib chiqarishi sababli bunday yozish tavsiya etilmaydi.



-Ilgari ota-onaga nisbatan faqat yosh bolalikda “엄마”, “아빠” so‘zlarini ishlatish belgilangan bo‘lsa, endilikda inson voyaga yetganidan keyin ham norasmiy vaziyatlarda “엄마” va “아빠” so‘zlarini qo‘llashi mumkin qilib belgilandi.

- Erkak kishi singlisining eriga murojaat qilganda yoki u haqda gapirganda 맏제 so‘zidan foydalanishiga ruxsat berildi.

-Ayol kishi singlisining eriga murojaat qilganda yoki u haqda gapirganda 제부 so‘zini ishlatishi mumkinligi belgilandi.

- Ering akasi haqida gapirganda ishlatiladigan so‘z sifatida 시숙 / 媳叔 unvoni qo‘shildi.

-Ering opasining eriga murojaat qilganda yoki u haqda gapirganda ilgari 아주머니 yoki (서방님) so‘zlarini ishlatish mumkin bo‘lgan bo‘lsa, endilikda faqat 아주머니 so‘zini qo‘llash belgilandi.

- Xotining akasining rafiqasi hamda xotining ukasining rafiqasiga nisbatan faqat (처남의 택) iborasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, endilikda (처남택) shakli ham to‘g‘ri deb hisoblanib, standartga qo‘shildi.

-Ish joyida rahbariyatga gapirganda hurmat ifodalovchi (-사/-) qo‘shimchasini qo‘shib, hamkasblar yoki quyi xodimlarga gapirganda esa bu qo‘shimchasiz gapirish qoidasi o‘zgartirilib, lavozimidan qat’i nazar barcha xodimlarga nisbatan (-사/-) qo‘shimchasini qo‘shib hurmat qilish 존대 asosiy qoida etib belgilandi. Xodimning lavozimi past bo‘lgan taqdirda ham, ishxonadagilar haqida gap ketganda (-사/-) qo‘shimchasini qo‘shib, masalan: (김 대리 거래처에 가셨습니까?) deb hurmat bilan gapirish lozim.

-Ilgari 축하드리다 - tabriklayman) iborasi ortiqcha hurmat hisoblanib, faqat 축하하다 shaklida yozish belgilangan edi. Endilikda esa 축하합니다 bilan bir



qatorida, hurmat ma'nosini yanada yaqqolroq ifodalovchi 축하드립니다 iborasi ham rasmiy to'g'ri ifoda sifatida tan olindi.

-Savdo sohasida ishlovchi xodimlarning mijozlarga o'ta yuqori hurmat ko'rsatish niyatida jonsiz predmetlarga nisbatan ortiqcha (-사/-) hurmat qo'shimchasini qo'shib gapirish holatlari uchraydi, biroq bu to'g'ri hurmat (nutq) qoidasi emas. Kofe do'konlarida tez-tez quloqqa chalinadigan (커피 나오셨습니다) yoki (뜨거우시니 조심하세요) kabi jumlar mijozni emas, balki kofening o'zini ulug'laydigan noto'g'ri ifodalardir. Shu bois ularda (-사/-) qo'shimchasini ishlatish mumkin emas. (커피 나왔습니다) yoki (뜨거우니 조심하세요) shakli to'g'ridir. Shuningdek, (포장이세요?) yoki (품질이십니까) iboralarida ham yoki eshituvchining shaxsiy mulki yoki u bilan uzviy bog'liq narsa bo'lmagani uchun, 포장해 드릴까요? yoki (품질입니다) deb aytish eng to'g'ri nutq odobidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 장원호. 언어예절교육 프로그램 개발 및 적용 효과. 중앙대학교, 2022.
2. 이석주. 한국 전통 사회와 언어 예절. 화법연구, 2009.
3. 정민영. 현대인의 언어 예절. 서울: 글누림출판사, 2016.